


2017 yil yanvar – iyun oylarida amalga oshirilgan qurilish ishlari

2017 yilning yanvar– iyun oylarida Samarqand viloyatida 1401,4 mlrd. soʻmlik qurilish montaj ishlari bajarilib, oʻsish surʼati oʻtgan 2016 yilning shu davriga nisbatan 113,1 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish montaj ishlari hajmi 70,3 mlrd. soʻmni tashkil etib, oʻsish surʼati 108,9 foizni tashkil qildi.



Jami qurilish ishlarining hajmida kichik qurilish tashkilotlari va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish montaj ishlari hajmi 31,8 foizni tashkil etdi. Kichik qurilish tashkilotlari va mikrofirmalar asosan sotish uchun moʻljallangan uy-joylarni qurish, avtomobil yoʻllarini taʼmirlash, yangi qurilish, rekonstruksiya, ijtimoiy soha obʼyektlari (maktablar, maktabgacha taʼlim muassasalari), namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan va arzonlashtirilgan uy-joylar qurilishida oʻz faoliyatlarini amalga oshirmoqda.



Mulkdilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 1366,7 mlrd. soʻmlik qurilish montaj ishlari bajarilgan boʻlib, jami qurilish ishlari hajmining 97,5 foizini tashkil qildi va ushbu koʻrsatkich oʻtgan yilning oʻsish surʼatiga nisbatan 1,2 bandga koʻpayib, 118,3 foizni

tashkil qildi. Mulkchilikning davlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 66,7 mlrd. soʻmlik qurilish montaj ishlari bajarilgan boʻlib, jami qurilish montaj ishlari hajmidagi ulushi 4,8 foizini tashkil qildi.



2017 yilning yanvar – iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha bajarilgan qurilish ishlarida nodavlat mulkchilikda bino va inshootlar qurilishining ulushi 1366,7 mlrd. soʻmni tashkil qilib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan oʻsish surʻati 118,3 foizni tashkil qildi. Davlat mulkchiligidagi ulush esa, 34,6 mlrd. soʻmni tashkil qilib, bu oʻtgan yilning mos davriga nisbatan oʻsish surʻati 79,7 foizni tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha bajarilgan qurilish ishlarida nodavlat mulkchilikdagi fuqarolik qurilish obʻektlarining ulushi 201,1 mlrd. soʻmni tashkil qilib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan oʻsish surʻati 126,2 foizni, davlat mulkchiligidagi ulush esa, 11,5 mlrd. soʻmni tashkil qilib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 56,6 foizni tashkil qildi.

Shuningdek, ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining ulushi 51,5 mlrd. soʻmni tashkil qilib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan oʻsish surʻati 111,7 foizni, davlat mulkchiligidagi ulush esa, 1,8 mlrd. soʻmni tashkil qilib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 79,7 foizni tashkil qildi.